

Chingachkukning bobolari

Afsonaviy Chingachkuk haqidagi filmlarni nafaqat bolalar, balki kattalar ham sevib tomosha qilishadi. Uning dovyurakligi, bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashi tillarda doston bo'lgan. Siu qabilasi yetakchisi bolgan Chingachkuk hozirgi kunda hindularning sevimli qahramoni, ramzi hisoblanadi.

O'z davrida hindu qabilalari yuksak sivilizatsiyaga ega bo'lishgan. Ular erishgan yutuqlar hozirgi kunda ko'plab olim va tadqiqotchilarning hayratiga sabab bo'layotir. XIV asrdagi urushlar hindu davlatlarining tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda jami hindularning soni uch yuz mingdan oshmaydi. Aslida, ularni hindu deyish birmuncha noto'g'ridir. Genuyalik dengizchi Xristofor Kolumb 1492-vil 3-avgust kuni «Santa Mariya», «Ninya», «Pinta» kemalarida, jami 90 kishilik ekipaji bilan Ispaniyaning Palos shahridan yo'lga chiqadi. Maqsadi «Hindiston», deb atalmish sehrli, oltinga boy mamlakatga borish edi. Ochiq okeanda adashib qolishi natijasida buyuk dengizchi Hindistonga emas, balki Shimoliy Amerika qirg'oqlariga kelib qoladi. Qirg'oqda yurgan odamlarni hindistonlik bo'lsa kerak deb o'ylab, ularni hindular, deb ataydi. Va shu tariqa mahalliy aholi «hindu» deya yanglish nomlanadi.

O'sha paytlari bu yerlarda qizil tanlilarning mayya, astek, ink, siu va boshqa qabilalari hayot kechirishardi. Ular mehnatkash va o'z madaniyatiga ega edi. Inklar — Janubiy Amerikaning tub aholisi bo'lib, XV asr oxiri va XVI asr boshlarida And tog'i va uning atrofini egallagan ulkan davlatda yashagan. Yozma manbalarga ko'ra ushbu davlat gullab-yashnagan davrda 4000 km² hajmdagi maydonni egallagan. Inklar davlatining aholisi 12 milliondan ortiqni tashkil etardi.

Ajablanarlisi, avval ular tog'da yashashgan. Taxminan miloddan avvalgi 1000-yilda Kusko vodiysiga kelib o'rtnashishgan. Asta-sekin ular qo'shni xalqlarni o'zlariga bo'ysundirib, kattagina hududga egalik qila boshlashgan. Erkak inklar dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Iste'mol qilsa boladigan o'simliklar o'stirishar, o'zlari va oila a'zolariga kiyim-kechak tayyorlash ham ularning gardanida bo'lgan.

Inklar mais (makkajo'xori), kartoshka, pomidor, yeryong'oq va paxta yetishtirgan. O'rdak, lama va it kabi hayvonlar xonakilashtirilib, ommaviy ravishda ko'paytirilgan.

Inklarning saroylari, ibodatxonalari, sug'orish tizimlari va qal'alari And tog'ining deyarli barcha hududlarida uchraydi. Bundan tashqari, inklar katta va kichik tog'yonbag'irlarida ulkan yo'llar tarmog'i barpo etishadi.

Asteklar — XIV asrda Meksika vodiysida yuksak taraqqiy topgan madaniyat yarata olgan qadimiy xalqlardan biri. Ular taxminan 1345- yili Meksika vodiysiga kelib o'rtnashishgan. Asteklar Teskoko dengizi o'rtasidagi orolda ulkan shahar bunyod etishadi. Shaharni Tenochtitlan deb nomlashadi. Ushbu shaharni yaxshi bilasiz. Bugungi kunda ushbu shahar — Mexiko deb ataladi. Tenochtitlan asteklar davlatining poytaxtiga aylanadi. Shaharda xalq mehnati bilan kanallar quriladi, daryolarda to'g'onlar barpo qilinadi.

Asteklar pul muomalasida qurol va kakao donidan foydalanishgan. Ko'pgina asteklar xom g'ishtdan qurilgan kichikroq kulbalarda yashashgan. Erkaklar va bolalar dalalarda ishlagan bolsa, ayollar va qizlar uyda o'tirib non yopish, makkajo'xori (mais) yanchish, paxtadan tudi kiyimlar to'qish bilan mashg'ul bo'lishgan.

Barcha hokimiyat ishlari imperator tasarrufida edi. Unga sarkardalar, kohinlar va badavlat savdogarlar itoat etishgan. Inklardan farqli ravishda asteklarda oddiy aholining huquqlari cheklangan edi.

Qadimgi mayyaliklar 495 ming km² maydonni egallagan ulkan hududda istiqomat qilishgan. Ushbu hududda hozirgi paytdagi Nleksikaning janubiy qismi, Gvatemala. Beliz, Gonduras va Salvadorning g'arbiy qismi joylashgan.

Mayyaliklar Meksika va Markaziy Amerikaning qadimgi xalqi, astek va inklarning inoq qo'shnilar edi. Miloddan avvalgi 1200-yildan to milodiy 300-yilgacha mayyalar Meksika vodiysidagi oddiy elatlardan biri bo'lgan. Ular asosan dehqonchilik bilan shug'ullanib, makkajo'xori, paxta, loviya va kakao yetishtirishgan.

Mayya qabilasidagilar tosh qurollardan foydalangan holda turli zeb-ziynat buyumlarini yasashgan. Yog'ochga mohirona ishlov berish, chelak yasash va paxtadan kiyimlar to'qish ularning sevimli mashg'ulotlari sanalgan. Dehqonlari kakao doni, yaguar terisi, qush pati va tuz orqali savdo-sotiq qilishgan.

Hozirda Meksikaning janubi, Gvatemala, Beliz va Gondurasning g'arbida kam sonli mayya qabilasi istiqomat qiladi.

Gulxan jurnalidan
Ma'lumot.
Davronbek Oripov